



THE IDEOLOGICAL SOURCES OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR'S PHILOSOPHICAL WORLDVIEW

Behzod Khamdamov

Lecturer at Bukhara State Medical Institute

Bukhara, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Zahiriddin Muhammad Babur; Babur's philosophy; Babur's worldview; Eastern philosophy; Sufism; moral philosophy; Eastern humanism; Timurid traditions; spiritual and cultural heritage; Baburnama; philosophical sources; ethical and enlightenment-oriented views.

Received: 13.01.26

Accepted: 14.01.26

Published: 15.01.26

Abstract: This article examines the main spiritual and intellectual sources that shaped the philosophical worldview of Zahiriddin Muhammad Babur, the influence of Eastern and Islamic philosophical traditions on his thinking, as well as the intrinsic connection between his artistic-aesthetic perspective and his socio-ethical views. The study explores the harmony between the spiritual heritage of Farabi, Ibn Sina (Avicenna), Nizami, Jami, and Navoi and Babur's inner world, as well as the philosophical criteria formed under the political and legal traditions of the Timurid era. The conceptual foundations of Babur's reflections on human nature, justice, homeland, love, and enlightenment are revealed through an analysis of the Baburnama and his ghazals. The article evaluates the phenomenon of Babur's personality within the framework of Eastern humanism, Sufi thought, moral philosophy, and the culture of governance, emphasizing the contemporary relevance of his worldview as an important theoretical source for modern educational and spiritual development processes.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FALSAFIY DUNYOQARASHINING G'OYAVIY ILDIZLARI

Behzod Xamdamov

Buxoro davlat tibbiyot instituti o'qituvchisi

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Zahiriddin Muhammad Bobur; Bobur falsafasi; Bobur dunyoqarashi; Sharq falsafasi; Tasavvuf; axloqiy falsafa; Sharq gumanizmi; Temuriylar anʼanalari; maʼnaviy va madaniy merosi; Boburnoma; falsafiy manbalar; axloqiy va maʼrifiy qarashlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy dunyoqarashini shakllantirgan asosiy maʼnaviy-intellektual manbalar, Sharq va islom falsafasining Bobur tafakkuriga koʻrsatgan taʼsiri hamda uning badiiy-estetik dunyoqarashi bilan ijtimoiy-axloqiy qarashlari oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik tahlil qilinadi. Tadqiqotda Jomiy, Navoiyning maʼnaviy merosi bilan Bobur ruhiyatidagi uygʻunlik, shuningdek, temuriylar davrida shakllangan siyosiy-huquqiy anʼalarning uning tafakkurida falsafiy mezonlar yaratganligi koʻrib chiqiladi. Boburning “Boburnoma” va gʻazallarida inson, adolat, vatan, muhabbat, maʼrifat borasidagi qarashlarning gʻoyaviy ildizlari konseptual jihatdan ochib beriladi. Maqola Bobur shaxsiyati fenomenini Sharq gumanizmi, tasavvufiy maʼrifat, axloq falsafasi va davlat boshqaruvi madaniyati bilan bogʻliq holda tahlil qilib, uning dunyoqarashi zamonaviy maʼnaviy-tarbiyaviy jarayonlar uchun ham dolzarb nazariy manba ekanini asoslaydi.

ИДЕЙНЫЕ ОСНОВЫ ФИЛОСОФСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА

Бехзод Хамдамов

Преподаватель

Бухарского государственного медицинского института

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Захириддин Мухаммад Бабур; философия Бабура; мировоззрение Бабура; восточная философия; суфизм; этическая философия; восточный гуманизм; традиции Тимуридов; духовно-культурное наследие; «Бабур-наме»; философские источники; просветительно-нравственные взгляды.

Аннотация: В данной статье анализируются основные духовно-интеллектуальные источники, сформировавшие философское мировоззрение Захириддина Мухаммада Бабура, влияние восточной и исламской философии на его мыслительный стиль, а также взаимосвязь его художественно-эстетических взглядов с социально-нравственными представлениями. В исследовании рассматривается гармония между духовным наследием Фараби, Ибн Сины, Низами, Джами, Навои и внутренним миром Бабура, а также то, каким образом политико-правовые традиции эпохи Темуридов создали

определённые философские критерии в его мировоззрении. В «Бабур-наме» и газелях мыслителя концептуально раскрываются идейные истоки его взгляда на человека, справедливость, родину, любовь и просвещение. Статья анализирует феномен личности Бабура в контексте восточного гуманизма, суфийского познания, этической философии и культуры государственного управления, обосновывая значимость его мировоззрения как важного теоретического источника для современных духовно-воспитательных процессов.

Kirish. Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy dunyoqarashi XV–XVI asrlar Movarounnahr, Xuroson va Hindiston kabi ulkan sivilizatsion makonlarning o‘zaro kesishgan nuqtasi sifatida shakllangan. Uning tafakkuri bir madaniyat yoki bir falsafiy maktab ta’sirida emas, balki ko‘p qatlamli madaniy-intellektual muhitda, ya’ni turkiy amaliy falsafa, forsiy ma’rifiy maktab, Moturidiya kalomi, tasavvuf va irfon, hind ruhiyati va amaliyoti, shuningdek, tabiatshunoslik tajribalarining o‘zaro mutanosibliigi asosida yuzaga kelgan. Shuning uchun ham Bobur tafakkurini faqat shoir, sarkarda yoki davlat arbobi sifatida emas, balki Sharq falsafa tarixidagi sinkret fikrlashning yetuk namunasi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir. Mutaakkirning asarlari — “Boburnoma”, devonlari, tarixiy ocherklari va tabiat haqidagi kuzatishlari o‘z mohiyatiga ko‘ra, faqat voqealarni bayon etish yoki xotira xarakteriga ega matnlardan iborat emas. U zohiriy voqelik tasviridan ancha yuqorida turgan, inson, jamiyat va olam tuzilishi haqidagi fundamental falsafiy qonunlarni idrok etishga qaratilgan murakkab ma’naviy-axloqiy manbadir. Mirzo Bobur asarlari tahlili shundan dalolat beradiki, Bobur faqat boshdan kechirgan voqealarni qayd etuvchi tarixnavis emas, balki voqelikning ichki mohiyatini tafakkur qilishga intiladigan, inson borlig‘ining mohiyati va tuyg‘ulari, iroda va taqdir, axloq va hayotiy tanlov, tabiat hamda insoniyat o‘rtasidagi munosabatlar haqida fikr yurituvchi yetuk mutaakkir ekanligi namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Bobur fenomeni Sharq ma’naviyati, tasavvuf falsafasi, insonparvarlik an’analari va temuriylar davri intellektual muhitining murakkab sintezini o‘zida jamlagan. Sharq falsafasiga oid klassik manbalarda – Forobiy, Ibn Sino, Nizomiy, Attor, Jomiy, Navoiy merosida insonning ma’naviy takomili, olam va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, adolat va ma’rifat tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi. Adabiyotshunos va faylasuf olimlar Boburning dunyoqarashi aynan shu intellektual muhit ta’sirida shakllanganini ta’kidlaydilar. Xususan, A.Hayitmetov, V.Abdullayev, H.Karimov kabi

tadqiqotchilar Bobur ijodidagi insonparvarlik g'oyalari Navoiy maktabining mantiqiy davomi sifatida talqin etadilar.

Zamonaviy tadqiqotlarda Boburning falsafiy merosi uning davlatchilik haqidagi qarashlari, adolat, qonun ustuvorligi, shaxs mas'uliyati va vatanparvarlik haqidagi fikrlari bilan bog'liq holda yoritilmoqda. T.Qurbonov, Sh.Rahmatullayev, R.Mo'minov kabi olimlar Boburni "amaliy falsafa va siyosiy tafakkur sohiblaridan biri" sifatida baholab, uning davlat boshqaruvi amaliyotidagi adolatparvarlikni falsafiy ko'lamda tahlil etadilar.

Boburning badiiy merosi, ayniqsa "Boburnoma" falsafiy antropologiya va axloqshunoslik nuqtayi nazaridan muhim manba hisoblanadi. Unda inson tabiati, vijdon, iroda, ehtirom, do'stlik, sadoqat, muhabbat kabi tushunchalarning qiyosiy va amaliy sharhlari mavjud. Xorijlik olimlar, jumladan A.Beveridj, E.Denison Ross, F.Braun, S.Deyl kabilar Boburning ruhiy olami, falsafiy fikr yuritishi va realistik kuzatishlarini Sharq Renessansi merosi bilan bog'laydilar.

Tasavvufiy adabiyotlarning Bobur dunyoqarashiga ta'siri haqidagi tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Jomiy va Navoiy asarlaridagi ruhiy-axloqiy poklanish, insonni ma'rifat bilan yetuklikka yetkazish g'oyalari Bobur qiyofasida yangi amaliy mazmun kasb etgani mahalliy olimlar tadqiqotlarida ta'kidlanadi. Ayniqsa, muhabbat, sabr, qanoat, vatanga sadoqat kabi tushunchalarning badiiy-simvolik talqini Boburda tasavvufiy ma'naviyatning yangi qirralarini namoyon qiladi.

Shu bilan birga, adabiyotlarda Boburning falsafiy merosiga oid maxsus, kompleks yondashuv yetarlicha rivojlanmagani kuzatiladi. Ko'pgina tadqiqotlar Boburni tarixchi, shoir, davlat arbobi sifatida o'rganadi, ammo uning dunyoqarashidagi g'oyaviy ildizlar, ya'ni Sharq falsafasi, temuriylar siyosiy madaniyati, tasavvufiy insonparvarlik an'analari va o'z shaxsiy ruhiy tajribalarining integratsiyasi yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Metod va metodologiya. Maqolada analiz va sintez, kompleks yondashuv, qiyosiy tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, dialektik, sinergetik, germenevtik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. "Boburnoma"dagi voqealar bayoni yuzaki tasvirdan iborat emas. Unda har bir hodisani sabab-oqibat zanjirida tushunish, inson xatti-harakatlarini axloqiy tahlil qilish, shuningdek, amal, niyat va natija munosabatlarini baholash kabi falsafiy amaliyot uyg'un holda o'z aksini topgan. Boburning voqelikka yondashuvi ko'proq germenevtik va analitik ahamiyat kasb etadi. U tashqi hodisalarni ichki ma'no qatlamlari bilan bog'lashga intiladi. Mazkur yondashuv Mirzo Bobur qarashlaridagi falsafiy intuitsiyaning mustahkamligini, voqealarni faqat tarixiy emas, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat sifatida tushunishga qodirligini namoyon etadi.

Mutafakkir she'riyatida ham uning falsafiy tafakkuri nozik jihatlari ifodalangan. Unda insonning ichki kechinmalari, ishq va vafo, taqdir va iroda, o'tkir dard va ruhiy barqarorlik kabi

masalalar badiiy-ramziy talqin orqali chuqur falsafiy mohiyat kasb etadi. Devonlardagi har bir lirik qiyofa inson tabiati, ruhiy kamolot va hayotning ma'naviy mohiyati haqidagi umumfalsafiy xulosalar bilan bevosita bog'langan.

Boburning tabiatga oid kuzatishlari, jumladan iqlim, flora va fauna, geografiya va mintaqa xususiyatlari haqidagi izchil fikrlari uning ratsional-falsafiy tafakkurining yana bir muhim jihati sifatida namoyon bo'ladi. Mutafakkir tabiatni nafaqat shunchaki tasvirlash, balki shu bilan birga uning qonuniyatlarini idrok qilishga harakat qiladi. Har bir hodisaning ichki mazmun mohiyatini anglashga harakat qiladi. Bu esa, uning dunyoqarashida empirizm va metafizika bir vaqtning o'zida mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Shunday qilib, Bobur asarlari nafaqat tarixiy yodgorlik, shuningdek inson mohiyati, jamiyatning ma'naviy poydevori, axloq va vazifa, taqdir va iroda, tabiat va inson o'rtasidagi munosabat, hokimiyat va mas'uliyat kabi fundamental falsafiy masalalarni o'zida mujassam etgan mukammal fikriy tizim sifatida talqin etilishi maqsadga muvofiqdir. Mutafakkir asarlarining ma'naviy-falsafiy qiyofasi Sharq tafakkuriga xos bo'lgan sinkret fikrlash an'anasining yetuk namunasidir. Ma'lumki, sinkretizm, ayniqsa, Sharq sivilizatsiyasida axloqiy, irfoniy, mantiqiy va estetik qatlamlarni bir-biridan ajratmasdan, borliqni yaxlitlikda idrok etish tamoyili sifatida rivojlangan [3]. Mazkur jihatdan Mirzo Bobur merosi ham inson tajribasining turli ma'no qatlamlarini, jumladan ruhiy, ijtimoiy, kosmologik va axloqiy jarayonlarni bir-biridan ajratmasdan talqin qiladi.

Ta'kidlash joizki, inson va borliq munosabati mutafakkir talqinida nafaqat mantiqiy amaliyot, shu bilan birga ruhiy kamolot va ma'no yaratish jarayonlarining birligi sifatida namoyon bo'ladi. Uning asarlarida olamning ichki tartibi (kosmos), inson tafakkuri, iroda va axloqiy mas'uliyat masalalari o'zaro bog'liq jarayon sifatida yoritiladi. Bu yondashuv Sharq falsafasining Abdurahmon Jomiy, Hazrat Navoiy, Suhrevardiy kabi mutafakkirlarida keng tarqalgan bo'lib, inson va olam o'rtasidagi muvozanatni ma'naviy qonuniyatlar asosida izohlashni nazarda tutadi. Mirzo Bobur asarlaridagi bunday sinkret fikrlash bu bilishning ratsional va intuitiv shakllarini birlashtiruvchi irfoniy-hikmatiy metodologiya natajasidir. Unda mantiqiy tahlil irfoniy mushohada asosida, tarixiy tafakkur ma'naviy tajriba asosida, shaxsiy ruhiy izlanish esa, umuminsoniy ontologik qonuniyatlar bilan uyg'un holda namoyon bo'ladi. Shuning uchun, uning merosi alohida fanlarga bo'linib ketgan modern fikrlashdan farq qiladi. U yaxlitlikni saqlashga intiladi, bu esa, o'z navbatida, Sharq tafakkurining asosiy intellektual belgisini ifoda etadi.

Shu ma'noda Mirzo Bobur asarlari inson mohiyati, borliq strukturasi, axloqiy mas'uliyat va iroda, qazo-qadar, tabiat va jamiyat munosabati kabi ontologik va aksiologik masalalarni qamrab olgan umumiy falsafiy manzarani taqdim etadi. Mirzo Bobur insonni faqat ijtimoiy mavjudot emas, balki ma'no yaratuvchi ruhiy subyekt sifatida tadqiq qiladi. Inson hayotini kosmos va

ma'naviy qonuniyatlar bilan o'zaro bog'laydi. Bu, o'z navbatida, Sharq irfonidagi «inson — kichik olam, olam — katta inson» tamoyilining zamonaviy ko'rinishi sifatida ahamiyatlidir [7].

Mirzo Boburning yuksak ma'naviy izlanishlari inson va borliq o'rtasidagi muvozanatni tiklashga, insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlar va uyg'unlik bosqichlarini tahlil qilishga qaratilgandir. Shu jihatdan, uning merosi faqat badiiy yoki tarixiy manba emas, balki antropologik, irfoniylar va falsafiy qarashlarni o'zida mujassam etgan intellektual meros sifatida ahamiyatlidir.

Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoqarashi quyidagi omillar asosida shakllangan:

birinchidan, turkiylar amaliylar davlatchilik tafakkuri, ya'ni adolatparvarlik, qattiq intizom, insof, siyosiy mas'uliyat yuksakligi;

ikkinchidan, forsiylar ma'rifiylar-an'anaviylar muhit, jumladan Hazrat Navoiylar, Abdurahmon Jomiy, Sanoiy kabi zotlar orqali shakllangan irfoniylar-axloqiy fazilatlar;

uchinchidan, tasavvuf va irfoniylar tafakkur, naqshbandiylarining "amaliylar ibodat", "poklik", "nafsni tarbiyalash" kabi ta'limotlari;

to'rtinchidan, islomiy falsafa va Moturidiylar kalomi, jumladan aql va vahiy uyg'unligi, ilmiylar asosda mushohada qilish;

beshinchidan, hind ruhiylar-falsafiy muhiti, jumladan vedanta, bxakti, buddizm, sikx falsafasining inson va tabiatga oid g'oyalari;

oltinchidan, tabiatshunoslik va mantiq, jumladan Ulug'bek maktabi, empirik kuzatish va isbot metodlari ta'siri.

Mazkur omillar o'zaro birikib, Mirzo Boburdagi sinkret fikrlashni, ya'ni bir-biridan farqli intellektual manbalarni birlashtirish qobiliyatini vujudga keltirdi. Ushbu sinkretlik uning falsafiy dunyoqarashining asosiy ildizlarini tashkil etadi.

Bobur falsafiy tafakkurida inson va tabiat, xotirjamlik va harakat, ruh va jism, adolat va hokimiyat, iroda va taqdir, muqaddarlik (ontologik zaruriyat-H.B.) va mas'uliyat kabi ikkilik kategoriyalar (antinomiyalar) o'ziga xos tarzda ifoda etiladi. Mutafakkirning tafakkur tarzida tasavvufiy botiniylar, turkiylar amaliylar va Moturidiylar ratsionalizmi bir vaqtning o'zida, bir makonda harakatlanadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning axloqiy qarashlari ham sinkret xususiyatga egadir. Bir tomonda u Hazrat Navoiyning insoniylar, saxovat, fano va qalb pokligi haqidagi g'oyalarini o'zida mujassam etgan bo'lsa, boshqa tomondan podshoh sifatida mas'uliyat, qonuniylar va davlat adolatini ustuvor qo'yadi. Bu, o'z navbatida, turkiylar davlatchilik an'anasining davomi hisoblanadi. Mazkur tarzda Mirzo Bobur falsafiy dunyoqarashi "ko'pmadaniyatli fikrlash modeli" sifatida shakllangan bo'lib, u juda kam uchraydigan darajada keng qamrovli va integrativ xususiyatga egadir.

Mutafakkir shaxsiyati butunlay turkiy davlatchilik muhitida shakllangan. Temuriylar sulolasi an'anasida tarbiya topgan Bobur uchun podshoh shaxsi, eng avvalo, adolat kafolatchisi, jamiyatni tartibga soluvchi "qonun va in'om" mezonlarining amalga oshiruvchisi sifatida izohlanadi. Ma'lumki, turkiy davlatchilik falsafasi qadimdan ijtimoiy adolat (insof), xalq manfaati, mardlik va mas'uliyat, bosqichma-bosqich islohot tamoyillariga asoslangan [4].

Mirzo Boburning "Boburnoma"sida turli hukmdorlar xulqiga bergan baholarida ham aynan shu amaliy aksiologiya, ya'ni xulq va sifatlar orqali davlatning barqarorligiga baho berish mezoni asos qilib olinganligini ko'rish mumkin. Mutafakkirning "yigitqa sharaf – xizmati xalqig'a qilinadur" degan qarashlari turkiy amaliy falsafadan kelib chiqadi. Boburda hokimiyat ma'naviy mas'uliyatdir; podshoh faqat siyosiy shaxs emas, balki jamiyatning ma'naviy ustunidir. Bu model Alisher Navoiy va Temuriylar davridagi "inson – jamiyat – davlat" munosabatlarining uzviy davomidir.

Mirzo Bobur falsafiy dunyoqarashining ikkinchi yirik ildizi XV asr Hirot adabiy muhiti, ayniqsa Hazrat Navoiy va Abdurahmon Jomiyning irfoniy-axloqiy merosiga borib taqaladi. Navoiy ilgari surgan "komil inson" ideali, Jomiyning irfoniy-ma'rifiy talqinlari, shuningdek Sanoiy va Attor asarlaridagi ruhiy kamolot nazariyalari Boburning ma'naviy-axloqiy tafakkuri uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, uning inson fazilatlarini markaziy kategoriya sifatida baholashiga ma'naviy zamin yaratdi.

Boburning lirik merosi, xususan, uning g'azallari, qit'alari hamda "Boburnoma"dagi samimiy bayon uslubi mutafakkirning fikrlash tarzining badiiy-falsafiy mohiyatini ochib beruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Uning badiiy nutqi his va tafakkurning birlashgan, ya'ni Sharq estetikasiga xos sinkret tarzda namoyon bo'lishi bilan e'tiborga loyiqdir. Mazkur holat Boburda zehniy mushohada bilan ruhiy holatning, fikr bilan estetik hisning uyg'unligini ta'minlaydi [6].

Mutafakkir ijodida uchraydigan "zorlikda vafo qilmoq", "dunyo sinovini mardona o'tmoq", "oqillik va sabr bilan kuchli bo'lmoq" kabi badiiy-axloqiy tasvirlar, avvalo, uning ma'naviy shakllanishida forsiy–tasavvufiy badiiy maktabning ta'sirini ifoda etadi. Forsiy-irfoniy adabiyotda insonning ruhiy kamolotga yetishi, sinov va tafakkur orqali poklanishi, sabr va vafo orqali komillikka intilishi kabi g'oyalar Sanoiy, Attor, Sa'diy va Hofizlar ijodida keng yoritilgan. Ushbu an'analar mutafakkirning she'riy tafakkurida badiiy shaklda yangi mazmun bilan boyitilgan.

Sharq tasavvufiy maktabida, xususan, Sanoiyning "Hadoiq ul-haqoyiq", Attorning "Mantiq ut-tayr" va Sa'diyning "Guliston" kabi asarlarida insonning hayotiy sinovlar orqali ma'naviy yuksalishi va axloqiy komillikka yetishi inson ruhi va fe'l-atvoridagi murakkab jarayon sifatida izohlangan [8]. Mirzo Bobur falsafiy qarashlarida sabr va iroda, vafo va aqlning markaziy o'rin tutishi ana shu irfoniy-ma'rifiy an'ananing o'ziga xos davomi sifatida namoyon bo'ladi.

“Boburnoma”dagi samimiy bayon ham uning fikrlashining falsafiy asoslaridan dalolat beradi. Mutafakkir voqealarni ortiqcha bezaklarsiz yoritadi. Shuningdek, ruhiy holat va ichki mushohada asosida bayon qiladi. Mazkur uslub irfoniy adabiyotdagi “ixlos, sidqidillik va ruhiy shaffoflik” tamoyillari bilan o‘zaro bog‘liqdir. Bu Sharq badiiy tafakkurida shakllangan antropologik-insonparvarlik prinsiplariga to‘la mos keladi. Mazkur jihat Boburning badiiy va falsafiy bayon usuli uning dunyoqarashini shaxsiy tajriba, estetik his va ma’naviy mushohadaning integratsiyasiga asoslangan intellektual tizim sifatida namoyon qiladi.

Ta’kidlash joizki, Mirzo Bobur badiiy-falsafiy fikrlashining shakllanishida forsiy-tasavvufiy adabiy maktabning ta’siri muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ta’sir, o‘z navbatida, insonning ruhiy, axloqiy va irodaviy kamolotiga doir tasavvurlarni bevosita markazga qo‘ygan falsafiy ma’rifiy tizimni Mirzo Bobur tafakkurida yanada takomillashtirgan.

Forsiy an’ana Boburga faqat she’riy uslub emas, balki simbolik (ramziy) fikrlash, badiiy-falsafiy talqin, inson ruhiyatini estetik idrok etish kabi imkoniyatlarni bergan. Mutafakkirning tabiat haqidagi manzaralari nafaqat tasvir, balki ruhiy holatning badiiy-falsafiy ramzi hisoblanadi. Bu esa, uning dunyoqarashini Sharq estetikasi bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qildi.

Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy-intellektual dunyoqarashi shakllanishida tasavvufiy-irfoniy an’analar bilan birga Moturidiylik maktabiga xos ratsional-praktik yondashuv ham muhim ilmiy-mantiqiy o‘rin tutgan. Ma’lumki, moturidiylik, ayniqsa, inson ongi va tafakkuri imkoniyatlarini obyektiv tarzda baholash, aql va dalillarning yetuk manba sifatida qo‘llanilishi, haqiqatni anglashda tafakkurning faol subyekt sifatida ishtirokini nazarda tutuvchi muhim ilmiy maktabdir.

Moturidiy kalomida aql, ilm, tadqiqot, mushohada va tafakkur inson ma’rifiy kamoloti uchun eng ustuvor mezonlardan biri sifatida talqin qilingan. Imom Moturidiyning “Kitob at-Tavhid” va “Ta’vilot al-Ahliya” asarlarida aqlning dunyo va inson haqidagi bilimni shakllantirishdagi ahamiyati mustaqil gnoseologik omil sifatida izohlangan. Bu ilmiy maktab g‘oyasiga ko‘ra, haqiqatga yetishishda inson aqliy tahlil, mantiqiy xulosa, tajriba va mushohadaga tayanishi lozim. Moturidiylikning ratsional-praktik poydevori, ayniqsa insonning irodasi, mas’uliyati va tanlov erkinligi haqidagi ta’limotida o‘z ifodasini topadi. Insonni faol subyekt sifatida baholash, uning harakatlari uchun mas’ulligi va irodaviy qarorlarining ahamiyatini belgilash Moturidiy ta’limotining asosiy aksiologik yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Mazkur yondashuv Boburda ham insonni faol, mas’ul va irodaviy mavjudot sifatida talqin qilishga metodologik asos yaratdi.

Shuningdek, Moturidiylikda ayrim tasavvurlar, xususan tadbir (sa’y), iroda (ixtiyor), qadar, axloqiy mas’uliyat, “inson niyati” kabi masalalarni aql orqali izohlash zarurati ta’kidlanadi[2]. Bu tamoyil Mirzo Boburning amaliy hayotga, davlat boshqaruviga, inson fazilatlarini baholashga oid

fikrlarida ham namoyon bo'ladi. Boburda ham inson xatti-harakatining natijasi tasodifiy yoki mutlaq qadar emas, balki aql, tajriba, iroda va mas'uliyat bilan bog'liq jarayon sifatida izohlanadi. Shu jihatdan Bobur tafakkurida kuzatiladigan amaliy aql, hayotiy fikrlash, voqelikka muvozanatli munosabat, insonga mas'uliyatli yondashuv kabi g'oyalar Moturidiylikning ratsional-falsafiy an'anasi bilan o'zaro uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Demak, Zahiriddin Muhammad Bobur fikriy merosi nafaqat tasavvufiy, balki kalomiy-ratsional asoslarga ega bo'lgan hikmatiy sintez sifatida ham talqin etilishi maqsadga muvofiqdir.

Boburda tasavvuf qisman "amaliy irfon" sifatida, ya'ni ruhiy tozalikni dunyodan uzilishda emas, balki faol hayot, ijtimoiy mas'uliyat va nafsni tarbiyalashda ko'radigan yo'nalish sifatida talqin etiladi. Mutafakkirning juda ko'p she'rlarida tasavvufiy ramzlar, jumladan sabr, qanoat, moyillik, "ichki olam" haqidagi fikrlar mavjud. Bu, o'z navbatida, uning ma'naviy tizimini irfoniy an'ana bilan bevosita bog'laydi..

Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy dunyoqarashini to'liq anglash uchun uning Hindistondagi hayot davrini, xususan, mahalliy falsafiy, ruhiy va madaniy muhit bilan bo'lgan muloqotini alohida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Buni shu bilan izohlash mumkinki, mutafakkir tafakkuri nafaqat Movarounnahr va Xuroson sivilizatsion makonida, balki Hindistonning turli xil ruhiy muhiti bilan bevosita o'zaro ta'sirda yangi ma'naviy qatlamlar bilan boyib borgan. Boburiylar saltanati o'rnatilgan davrda Hindistonda vedantizm, buddizm, bxakti harakati, sikx ta'limoti, jayn ruhiyati va mahalliy odatlar mavjud bo'lib, ushbu makon juda ko'pqirrali falsafiy manzara ahamiyat kasb etar edi. Ma'lumki, hind vedantizmi insonning ichki komillikka intilishi, ruh va jism o'rtasidagi muvozanat, kamolga yo'l sifatida idrok, poklanish va tafakkurni targ'ib etadi. Mazkur g'oyalarning ba'zilar, jumladan, ruhiy poklik, nafsni tarbiyalash va ezgulikka intilish masalalari Boburda mavjud bo'lgan tasavvufiy qarashlar bilan uyg'unlashib ketgan.

Bxakti harakati esa, insonning Ilohga muhabbat va sadoqat orqali ruxiy ozodlikka erishishi mumkinligini ta'kidlaydi. Mazkur g'oya Jomiy va Navoiydan ta'sirlangan Boburning ishq va vafo haqidagi tasavvurlari bilan ma'nan rezonansga kirgan bo'lib, Boburda ishq faqat badiiy vosita emas, balki falsafiy-axloqiy mazmun kasb etadi.

Bobur ta'limotidagi «inson o'z botinini tarbiyalash uchun mehnat, sabr va mushohada qilishi kerak» degan g'oya uning ruhiy-falsafiy qarashlari shakllanishidagi madaniyatlararo jarayonlarning muhim bir ko'rinishi bo'lib, ayniqsa, Hindistondagi falsafiy muhit bilan uzluksiz muloqotning bilvosita ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Zero, Boburning hayotining asosiy qismi hind madaniy makonida o'tgan va bu muhitda shakllangan qator falsafiy an'analar vedanta, yoga, buddist irfoni, jayn amaliy-axloqiy tizimi inson ichki tarbiyasi masalasida yuksak ilmiy-nazariy tajribaga ega edi. Mazkur an'analarning umumiy nuqtasi insonning botiniy dunyosini tarbiyalash

faqat bilim yoki irfoniy ilhom bilan emas, balki jismoniy va ruhiy mehnat, irodaviy barqarorlik va uzluksiz mushohada orqali amalga oshishi haqidagi g'oyani tashkil qiladi. Jumladan, hind yoga falsafasida tapas (ruhiy mehnat va o'zini tiyish), dhyana (mushohada), shamana (sabr va ichki tinchlikni shakllantirish) insonning o'zini anglash jarayonining asosiy bosqichlari sifatida talqin qilinadi[1].

Mirzo Bobur insonni ichki tarbiyaga da'vat etar ekan, uni faqat ma'naviy poklanish yo'li sifatida emas, balki amaliy hayotda zarur bo'lgan ruhiy-axloqiy barqarorlikning mezonini sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuvda mehnat shaxsning nafsni yengish va irodani mustahkamlash vositasi; sabr qiyinchilikka ma'rifiy munosabatning shakli; mushohada esa, insonning o'z amalini, niyatini va hayotiy yo'lini anglashga xizmat qiluvchi falsafiy tafakkur jarayonidir. "Har ne mushkul ish bo'lsa, sabr bilan oson bo'lur. Sabr qilgan kishi oxiri murodga yetgusidur"[5], "Kishiga doim o'z ahvoliga nazar solmoq kerak, ne ahvoldakim bo'lg'ay, o'shal ahvoldin ibrat olg'ay. Mushohada qilsa, har ishning sababi zohir bo'lur", "Kimki o'z nafsini tarbiyalasa, podshohlik emas, odamlilik sharafi anglashilur" fikrlari shular jumlasidandir. shuningdek, Boburning mazkur fikrlarida unga xos bo'lgan amaliy falsafa ham yaqqol namoyon bo'ladi. Inson o'zini tarbiyalashi, avvalo, jamiyat oldidagi mas'uliyatini anglashdan boshlanadi; botiniy tarbiya esa, ijtimoiy barkamollikning ichki sharti sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuv hind amaliy falsafasidagi kamolot modellari — karma-yogadagi faollik, radja-yogadagi mushohada, buddist axloqdagi sabr va xotirjamlik tushunchalari bilan ma'nan uyg'un ifodalanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Mirzo Boburda ichki dunyo tarbiyasi ruhiy-axloqiy tartib va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan tarbiya modeli hisoblanadi. Mehnat kishi irodasi va axloqiy qarorlari barqarorligini ta'minlaydi, sabr uni hayotiy sinovlar qarshisida mustahkam qiladi, mushohada esa, shaxsni anglash, voqelikni tahlil qilish va falsafiy xulosalar chiqarish qobiliyatini shakllantiradi.

Mirzo Boburning davlatchilik haqidagi qarashlarida ham ko'pqirralilik yaqqol kuzatiladi. U hokimiyatni faqat qudrat vositasi sifatida emas, balki xalq manfaatini ta'minlash, adolat o'rnatish va jamiyatni tartibga solishning ma'naviy-mas'uliyatli mexanizmi sifatida talqin qiladi. Bu qarash Movarounnahrda turkiy amaliy falsafaning davomidir. Lekin shu bilan birga, Boburdagi bag'rikenglik, g'oyalar xilma-xilligini qabul qilish, har bir insonning shaxsiy qadrini e'tirof etish kabi tamoyillar Hindistondagi vedantizm, buddiylilik va sikh etikasining ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa. Integral natijalar shuni ko'rsatadiki, Bobur falsafiy dunyoqarashi Sharq falsafa tarixida irfon – amal – aql ma'naviy qatlamlarini birlashtirgan yuksak namuna hisoblanadi. Mantiqiy tahlil, axloqiy ideallar va ruhiy komillikka intilish bir butun insoniy qiyofaning ma'naviy modelini tashkil qiladi. Mana shu tarzda Bobur tafakkuri faqat bir davr yoki bir xalq falsafasining qismi emas, balki umumsharqiy ma'naviy jarayonlarni uyg'unlashtiruvchi intellektual ko'prikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Feuerstein Georg. The Yoga Tradition: Its History, Literature, Philosophy and Practice. – Hohm Press, 2001.
2. Ал-Мотуридийлик таълимоти: тарих ва назария. – Тошкент: Ислом цивилизацияси маркази нашриёти, 2020.
3. Асқарова М. Шарқ фалсафасида синкретизм: тарихи ва назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2018. – 212 б.
4. Бартольд В. В. Туркестан в эпоху Тамерлана. М.: Наука, 1963.-С. 215–230.
5. Бобур З.М. Бобурнома. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 242.
6. Қаямов А. Ўзбек адабиётида бадий тафаккур ва руҳий мушоҳада анъаналари. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 224 б.
7. Насриддинов Ш. Ирфон ва инсон мукамаллиги назарияси. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2020.
8. Санойи Ҳаким Абдулмажид. Ҳадоиқ ул-ҳақойиқ ва шариат ул-торикат. – Техрон: Интишорот-и Муртазо, 1985
9. Ҳайитметов А. Темурийлар даври ўзбек адабиёти. – Тошкент. Фан. 1996. – 160 б.
10. Ҳамидов М. Ёшлар тарбиясида маънавий мерос. – Тошкент: Ёшлар, 2019. – 210 б.